

**KASB - SHAXSNI KAMOLOTGA VA SAODATGA
ELTUVCHI OMIL SIFATIDA**

Maxmudov Rozmet Muratovich,

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori, professor.*

maxmudovrozmet1965@mail.ru

Tel: +9989-99-821-66-95

Annotatsiya: maqolada shaxs va uning faoliyat turlariga yondashuvlar, kasb-hunar tushunchalarining mazmun, mohiyati, yoshlarni kasb tanlash jarayonidagi fikrlari va ularni kasb tanlash borasida qanday yo‘l tutishlari hamda bu borada olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, faoliyat, kasb-hunar, kasb turlari, dunyoqarash, ijtimoiy farq, extiyoj, maslahat, mutaxassislik.

Shaxs ish faoliyatining ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, xunari bu kasbdir. Kasb - bu shaxs ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati turlaridan biri bo‘lib, hisoblanadi. “Kasb” tushunchasi shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashiga bog‘liq bo‘lib o‘zini o‘zi kasbiy faoliyatida sinab ko‘rish jarayoni sifatida qaraladi. Kelajakda qaysi bir sohani tanlashingizdan qa‘tiy nazar qaysi ishga joylashishingizdan ham qa‘tiy nazar kasbni to‘g‘ri tanlamasangiz faoliyatingizdan bari bir ko‘nglingiz to‘lmaydi. Ishxonada vaqt o‘tmaydi tezroq, uyga borishni kutasiz. ... O‘zingizni o‘zingiz majburlab ishlaysiz. Qachon oyni oxir bo‘larkin va maosh olaman deb vaqt o‘tkazasiz...

Boy shaxs bilan kambag‘al shaxs o‘rtasidagi ijtimoiy farqlardan biri shundaki: boy shaxs o‘zi uchun zavqli ishni tanlaydi. Kasbidan zavq olib ishlaydi. Boy shaxsning kasbi uning uchun dam olishga qaratiladi. Kambag‘al toifadagi shaxslar esa ko‘p pul keltiradigan foaliyatni orzu qiladi. Kambag‘al shaxslar kasbdan zavq olishni emas, ko‘p pul topishni o‘ylashadi. Kasbi qiyin va o‘ziga yoqmasa ham pul uchun ishlayveradi. Psixologiya fani bilan kasbni bog‘liqligini taniqli rus psixologi K.M.Gurevich ta‘riflab bergan. Kasb bir umrlik emas, ular paydo bo‘ladi va yo‘qolib ketadi. Bunga misollar keltirish mumkin. Tikuvchilik kasbi - bu kasb texnikaning o‘sganligi sababli hozirda tikuvchilar avtomatlashtirilgan ko‘plab tikuv stanoklarini boshqaradilar. Gazlamalarni to‘qish nazarda tutilmoqda. Hozirgi tikuvchilarning ishlari bilan ilgargi tikuvchilarning ishlarini taqqoslab bo‘lmaydi.

Rus olimi K.M.Gurevich kasblarni paydo bo‘lishini va shakllanishini quyidagicha ko‘rsatadi.

- 1) Mehnat taqsimotini yuzaga kelishi bilan bog‘liq;

2) Fan- texnikani paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq;

3) Formatsiyalarni o‘zgarib borishi bilan bog‘liqdir.

Shaxs kasb orqali o‘zini boqishga, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo‘ldan bormoqda. Shaxs o‘z ehtiyojlarini eng avvalo oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechaklarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan.

Kasb - (lotincha: profession – rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) – maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuyiga ega bo‘lib, tajribali shaxsning doimiy mashg‘ulot turi hisoblanadi. Kasb- kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisosliklar bor (masalan, vrachlik kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va boshqa). Kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi¹.

Muayyan kasbni tanlash sabablaridan ko‘rinib turibdiki, professional faoliyatga faqat manfaatlar ta’sir qiladi. Nima uchun inson u yoki bu kasbni tanlaydi? aslida, tanlashga ko‘plab omillar ta’sir qiladi;

XX asrning 50 yillarda hamma o‘qituvchi, agronom bo‘lishi, 60-yillarda esa kosmonavt, 90-yillarda esa huquqshunos va iqtisodchi bo‘lishni hojlardi. Bugungi kunda IT mutaxasislari top-menejerlar, yuqori lavozimli amaldorlar turibdi. Ammo Siz faqat ushbu mezonlarga amal qilmasligingiz kerak: kasbga moda o‘zgarmoqda, obro‘-e’tibor ketmoqda.

Moliyaviy farovonlik esa kasb tanlashda muhim hisoblanadi². Eng ko‘p maosh oladigan kasblar qatoriga okean layneri kapitani, uchuvchi, top-menejeri, IT-mutaxasis, marketolog va boshqalar ta’luqli. “Oltin koni” ni tanlashda esda tutingki, kasbning o‘zi yetarli emas. Yuqori maoshga ega bo‘lish uchun Siz yaxshi mutaxasis bo‘lishingiz kerak va bu qo‘shimcha bilim malaka va tajribani talab qiladi.

Ota-ona, qarindoshlar, do‘stlar va tanishlarning maslaxati ham kasb tanlashda o‘ta muhim hisoblanadi. Ba’zida yoshlar do‘stlariga, sinfdoshlariga qarab hayot yo‘lini tanlashadi. Aslida esa 11-sinfdan keyin kasb tanlash ham murakkablashadi.

Ota-onalar va qarindosh urug‘larning fikri: ko‘rinib turibdiki, kim o‘z farzandini ona va otadan yaxshiroq biladi? shunga qaramay, otasining yo‘lidan borishdan bosh tortgan va yashirincha boshqa kasb tanlab o‘qishga kirganidan keyin ko‘plab buyuk shaxslar bo‘lib yetishgan. Ko‘pincha ota-onalar o‘z maslahatlarida o‘g‘li yoki qizining qobiliyatidan emas, balki obro‘-e’tibor yoki o‘zlarining bajarilmagan istaklaridan kelib chiqib kasb tanlashga majbur etadi. Shubhasiz, ularning fikrini tinglashga arziydi, ammo har bir kasb tanlash sohasida maslahatni extiyotkorlik bilan baholash kerak. Agar kasbni yoqmasligiga shubhangiz bo‘lsa, o‘zingiz hurmat qiladigan kattalar, masalan, qarindosh urug‘ bilan maslaxatlashsangiz yaxshi bo‘ladi. Chet elliklar

¹ Абдурахмонов Ф., Абдурахмонова З. Kasb psixologiyasi. T.: Fan, 2003. – 230 bet.

² Махмудов Р.М. Kasb tanlashda ijtimoiy fikr va uning ahamiyati. Мулоқот журнали. T.: 2005.

Sizning taqdiringiz va keraksiz behuda narsalaringiz haqida tashvishlanmaydilar, shuning uchun ular yanada foydali maslahatlar bera oladilar.

Kasb tanlashda Sizning hoxishingiz va fikringiz ham muhim hisoblanadi. Siz o‘zingizni fikringizga quloq solishingiz kerak. Kasb - shaxs faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishishingizni tajriba ko‘rsatyapti. Kasblar orasida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisosliklar bor. Ba’zi kasblarda bir qancha ixtisosliklar masalan: chilangarlar kasbidata’mirchi, asbobsoz chilangar, yig‘uvchi chilangar kabi yo‘nalishlar mavjud³. Yer yuzida taxminan 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O‘zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. Shuni aytish joyizki, jamiyatdagi rivojlanish kasblarni ham ko‘paytiradi. Shu bilan birga, kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy-normativ qonunlarga amal qilishni talab etadi. Kasb - hunarli shaxs bo‘lish, inson uchun zarur bir extiyoj ekanligini tarix isbotlagan. Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida shunday fikrlar mavjud “Bas, agar aqling bo‘lsa hunar o‘rgang‘il, nedinkim hunarsiz aql-boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kimga naf etkurmas”.

Hozirda o‘sib kelayotgan yoshlar o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasbni tanlashga intiladilar. Yoshlarga kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o‘rni va ahamiyati beqiyos. “Men kelajakda kim bo‘laman?”, Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?, “Mendagi iqtidor shunga yetadimi?”, “Kelajagimdan qoniqamanmikan?” degan savollar yoshlarni o‘ylantiradi. Ushbu savollarga javob olish uchun ular ko‘plab shaxslarni kasb egalarini kuzatadilar, hayotdan ma’lum bir saboqlar olishga intiladilar.

Dunyoni shiddat bilan rivojlanib borishi shaxslarni olayotgan (tanlayotgan) kasblarini raqobatbardoshligini, kerakliligini va yashashlari uchun imkoniyatlar yaratib bera olishlariga ishontira bilishi ham davr talabidir. Ijtimoiy jarayonlar yashashga beradigan imkoniyatlar, kasbga bo‘lgan intilishlar tabiiy ravishda kasbiy psixologiyaning bir bo‘lagi - psixologiyaga bo‘lgan talabni zaruriy qilib qo‘ydi va bu kasb psixologiyasi fanini paydo bo‘lishiga olib keldi.

O‘zbekistonda proforientatsiya fani endi rivojlanishi kerak bo‘lgan va yoshlarni kasb tanlashlariga yordam beruvchi asosiy mutaxassislik fani bo‘lib bormoqda. Kasb psixologiyasini mohiyati bu insonni kasbga xos xatti-harakatini va kasb tarixi bilan bog‘liq tomonlarini ko‘rsatib berish, shuningdek yoshlarni, kasb tanlovchilarni o‘zi qiziqqan kasbni tanlashlarida yo‘nalishlar berish, keyinchalik kasbdan ketishlariga yordam beradigan omillarni o‘rgatadi.

Harbiylik kasbi ham harbiy shaxsning faoliyati, doimiy xizmat turi; muayyan xizmat turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi.

³ Сирлиев Б. Касб сирлари. Т.: ИИВ Академияси, 2016. – 127 бет.

Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisosliklar bor (masalan, vrachlik kasbida xirurg, aftomolog, dermatolog va boshqa). Kasb, odatda, harbiy xizmatchining asosiy faoliyatining manbai hisoblanadi. Kasblarning birini qobiliyatlarimizga, dunyoqarashimizga, eng asosiysi qiziqish va moyilliklarimizga qarab tanlashimiz mumkin. Harbiy xizmatchi xizmat olib borayotgan vaqtda uning - e'tibori sohaga emas balki xizmat predmeti ob'ektiga qaratilgan bo'ladi. Harbiy xizmatda qurollar texnikalar mavjuddir. Harbiy xizmatchi uning qanday sharoitda xizmat olib borishi muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar beshta turiga bo'linadi.

1. "Odam — tabiat". Bu yerda mehnatning asosiy, predmeti jonli tabiatdir. Bunga quyidagi kasblar kiradi; urug'shunos, meva-sabzavotshunos, davlat urug'chilik inspeksiyasining laboranti, chorvador-usta, ximik bakteriologik analiz laboranti, zootexnik, agronom.

2. "Odam— texnika". Ushbu kasb egalarida ular uchun yetakchi predmeti texnika ob'ektlari (mashinalar, mexanizmlar va boshqa shunga o'xshashlar), materiallar energiya turlaridan iborat bo'ladi.

Texnika (texnik - mahorat, san'at) – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qoldirish maqsadida inson atrofidagi tabiatga ta'sir qilishga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmui.

3. "Odam-odam", Bunda mehnat predmeti shaxslardir. Mazkur mexnat sohasida mayllar, kizikishlar qay darajada ekanini aniqlashda o'quv predmetlaridan tashqari, jamoa bo'lib o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etib orttirgan tajribangiz ham yordam beradi. Makzur turga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko'rsatish mumkin: - Radioelektron apparatlar va asboblarni montajchisi elektr va radiotexnika sohasida chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak.

4. "Odam-belgilar tizim". Kasblarning bu turida shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun'iy tillar asosiy yetakchi mexnat predmeti hisoblanadi. Belgilar va belgi tizimlari dunyosida tekstlar, chizmalar, kartalar, jadvallar, formulalar, yo'l belgilari ichida yashaydi. Binobarin, bularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.

"Odam-belgilar tizimi" quyidagilarni o'z ichiga oladi: hujjatlarni (ona tilida yoki chet tilida) rasmiylashtirish, ish yuritish, matnlar va ularning qayta yozilishi, qayta kodlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan kasblar; tarjimon, sekretar-mashinistka, telegrafchi, texnik redaktor va boshqalar.

5. "Odam badiiy obraz". Kasblarning bu turida badiiy obrazlar, ularning tuzilish usullari asosiy mexnat predmeti hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan kasblar: badiiy mebellar ishlab chiqarish bo'yicha duradgor, toshga o'yib gul soluvchi, yoritish elektrotexnigi (teatrda), poyafzal konstruktor-modeleri, dizayner-rassom va boshqalar; Ishlab chiqarish, moddiy ishlab

chiqarish – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar.

Kasb shaxs faoliyati mazmunining muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Mehnatning maqsadlari xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan, ularni uchta katta guruhga: bilish, o‘zgartirish, o‘ylab topish guruhlariga bo‘lish mumkin. Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni uch turkumga ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Gnostik kasblar. Bu kasblarning nomi lotincha “gnosis”-bilim, bilish degan ma’noni anglatuvchi so‘zdan olingan.

O‘zgartiruvchi kasblar. Juda ko‘p kasblar predmetlarini o‘zgartirish turiga bog‘liq bo‘ladi.

Shaxslarning o‘zgartiruvchi faoliyati faqat buyumlargagina qaratilib qolmay, shu bilan birga energiya turlariga, axborotlarga, jarayonlarga, ijtimoiy hayotning tuzilishiga qaratilgan bo‘lishi ham mumkin⁴.

Qo‘l mehnatidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar. Mazkur kasbda ishlovchi kishilar qo‘l mehnatidan va mexanizatsiyalashtirilgan mehnat qurollaridan foydalanadilar. Masalan, otvyortka, skalpel (jarrohlik pichog‘i), shtixel (yog‘ochga yoki metallga o‘yib gul solish asbobi), reysfeder, tortsovka (bo‘yoqchilar cho‘tkasining bir xili), elektr drel, bo‘yoq purkagich, pnevmatik bolg‘asi va hokazolar ana shunday ish quroli hisoblanadi.

Qo‘lda bajariladigan ishlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar. Boshqacha qilib aytganda, ularni ham mashinada ham qo‘lda ish bajariladigan kasblar deyish mumkin - tokar, frezerchi, kran mashinisti, keng profildagi traktorchi mashinisti, elektrovoz mashinisti, shofyor va boshqalar ana shunday ham qo‘l mehnati, ham mashinadan foydalaniladigan kasblar qatoriga kiradi Bunday kasblarda ishlaydigan kishilardan faqat texnologik bilimlarga ega bo‘lish talab qilinmasdan, shu bilan birga ulardan qo‘l mehnati malakasiga ega bo‘lish ham talab kilinadi.

Avtomatlashtirilgan va avtomatik tizimlardan, apparatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar. Avtomatlashtirish darajasiga qarab ishlayotgan kishining zimmasiga har xil vazifa yuklatishi mumkin. Bu vazifa umuman agregatni va uning ta’miri bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bajarishdan tortib o‘sha agregat ishini kuzatib turish va agar zarurat tug‘ilsa, kerakli mutaxassisni chaqirishgacha bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga oladi.

Funksional vositalar, mehnat qurollari ko‘proq talab qilinadigan kasblar. Bu yerda odam xulk-atvoridagi funksional vositalar va uning nutqidagi ana shunday vositalar, ya’ni imo-ishoralar, tovushlar, so‘zlar, jummalarning talaffuz qilinishi, ma’no tashuvchi va emotsional intonatsiyalar, pauzalar, yuz mimikasi mehnat quroli rolini bajaradi. Bu bo‘limga: o‘qituvchi, tarbiyachi, san’atkor, aktyor, xor yoki orkestr dirijori singari

⁴ Душамов Р.Х. Ички ишлар органлари ходимларининг касби ва унинг жамиятдаги тутган ўрни. Т.: ИИБ Академияси, 2019. –135 бет.

kasblar kiradi.

Aktyor (yerkak) yoki aktrisa (ayol) (lotincha ast – ijro) drama, opera, ballet, ko‘g‘irchoq teatri, estrada, sirk, kino, radio va televideniada rollar ijro etuvchi shaxs. Aktyor o‘z tanasi, ovozi, aqli, xis-tuyg‘ulari, qobiliyati vositasida jonli badiiy obraz yaratadi.

Artist (frans, artiste – bilimdon; lot, ars, artis – kasb, hunar, san‘at) – dramatik spektakl, kinoda rollar, opera va ballet partiyalari, estrada konserti va sirk nomerlari ijrochisi. Teatr va kinoda aktyor, aktrisa deb ham yuritiladi.

Odatdan tashqari mehnat: yer ostida, suv ostida, balandlikda, havoda, qaynoq sexlarda, sog‘liq uchun muqarrar zararli ta‘siri bo‘lgan sexlarda ishlash. Bunday kasbga misollar: uchuvchi, shahtyor, g‘avvos va hokazo.

Odamlarning sog‘lig‘i, hayoti uchun, katta-katta jamoat boyliklari, moddiy ne‘matlar uchun oshirilgan ma‘naviy mas‘uliyat bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat. O‘qituvchi, shifokor, militsiya noziri, texnika xavfsizligi muxandisi va boshqa kasblarni mana shu mehnat guruhiga kiritish mumkin.

Xulosa o‘rnida muvaffaqiyatli tanlangan kasb saodatga yetaklaydi, baxtning kaliti hisoblanadi, eng asosiysi barcha ma‘murchilikni asosiy vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonov F., Abduraxmonova Z. Kasb psixologiyasi. T.: Fan, 2003. – 230 bet.
2. Sirliiev B. Kasb sirlari. T.: IIV Akademiyasi, 2016. – 127 bet.
3. Dushanov R.X. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbi va uning jamiyatdagi tutgan o‘rni. T.: IIV Akademiyasi, 2019. –135 bet.
4. Kasb tanlashda oilaning roli va o‘rni. Mualliflar jamoasi. T.: Oila instituti, 2021. –135 bet.
5. Maxmudov R.M. Kasb tanlashda ijtimoiy fikr va uning ahamiyati. Muloqot jurnali. T.: 2005.